

## **MEHNAT BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Abdullayev Umidjon G'afurovich

O'zbekiston Milliy Universiteti mustaqil izlanuvchi

Mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy islohotlarni amalga oshirish uchun, aholi bandligini ta'minlashning nazariy va amaliy mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasida mintaqalar bo'yicha mehnat bozorini shakllantirishda samarali siyosatni amalga oshirish, aholi o'sishi omillarini, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va tarkibiy qayta tashkil etishning istiqbol yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda bandlikning yangi shakllarini keng tadbiq etish orqali aholi bandligining o'sishni ta'minlash kabi vazifalarni bajarilishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mehnat bozorini rivojlanishini iqtisodiyot taraqqiyotining muhim sharti va ajralmas qismi sifatida tahlil qilinsa, uning asosiy me'zonlarini qamrab olish va ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish qulaylashadi.

Mehnat bozorini rivojlanishini iqtisodiyot taraqqiyotining muhim sharti va ajralmas qismi sifatida tahlil qilinsa, uning asosiy me'zonlarini qamrab olish va ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish qulaylashadi.

Mehnat bozorini rivojlanishining asosiy me'zonlari quyidagilardan iborat:

- mehnat resurslariga talabni oshirish;
- mehnat resurslari taklifini kamaytirish;
- ish bilan oqilona bandlikni ta'minlash;
- tabiiy ishsizlik darajasiga erishish.

Mehnat bozori bozor iqtisodiyoti tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Bu birinchi navbatda, bozor munosabatlari sharoitida amal etadigan turli: xomashyo materiallari, yoqilg'i, tayyor buyumlar, loyihamalar, ilmiy ishlanmalar, xizmatlar, turar joyga investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar va boshqa bozorlar bir-birlaridan farq qilsa ham ularni asosiy subyekt - inson birlashtirib turishi bilan izohlanadi.

Mehnat bozorini shakllantirish, uni yanada rivojlanish, ishsizlikni kamaytirish va aholi bandligini barqarorlashtirishni ta'minlashda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratishimiz lozim:

- Aholi joylashuvi asosida har bir hudud xususiyatlarini aniqlash va ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni ustuvorligini ta'minlash;

- 
- Demografik o'zgarishlarga parallel ravishda ish o'rinalarini yaratish, ayniqsa o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli aholi uchun ish o'rinalarini ko'paytirish lozim.
  - Tadbirkorlik muhitini yaxshilash, investitsion jozibadorlikni oshirish va chet el investrlariga yanada keng imkoniyatlar yaratish asosida qo'shimcha ish o'rinalarini ko'paytirish talabini kuchaytirishga e'tibor qaratish zarur;
  - Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan an'anaviy va zamonaviy kasblarga qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish lozim;
  - Ish bilan bandlikning nostandard shakllarini tadbiq etish kerak;
  - Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinalarini yaratish dasturlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarur;
  - Mehnat migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solishning samarali mexanizmini tadbiq etish kerak;
  - Ishsizlik sug'urtasi tizimini tashkil etish mexanizmini ishlab chiqish va tashkil tatbiq etish lozim.

Mehnat bozorida mehnat resurslariga talabni oshirishni asoslovchi me'zonga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi:

noqishloq xo'jaligi ish joylarini yaratilish;  
asosiy fondlarga investitsiyalar jalb etilishi;

ish joylarini yangi texnika va texnologiyalar bilan qayta jihozlanishi;  
kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama rag'batlantirilishi;

ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirilishi;

mehnat resurslarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

**Takliflar:** Mehnat bozorini rivojlantirish, ishsizlikni kamaytirish, bandlikni barqarorlashtirish uchun har bir hudud xususiyatlarini aniqlash zarur. Demografik o'zgarishlarga parallel ravishda ish o'rinalarini yaratish, ayniqsa o'rta va o'rta maxsus aholi uchun ish o'rinalarini ko'paytirish lozim. Tadbirkorlik muhitini yaratish, chet el investorlarini jalb qilish asosida bo'sh ish o'rinalarini yaratish. Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan an'anaviy va zamonaviy kasblarga qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish. Mehnat migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solish kerak. Ishsizlik sug'urtasi tizimini tashkil etish mexanizmini ishlab chiqish lozim. Mehnat bozoridagi vaziyatning monitoringini olib borish kerak. Mehnat bozorini tartibga solish ustuvorliklarini aniqlash kerak. Ish izlovchilar va ishga yollovchilar, ta'lim va



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> July - 2024

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

qayta tayyorgarlik bilan shug'ullanadigan maslahat berish va metodologik yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish zarur. Aholi o'rtasida ish bilan band bo'lganlarni aniqlash va ishsizlarni ish bilan taminlash va qishloq joylarida mehnat bozorini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozorini tashkil etish va rivojlantirish orqali aholi bandligi hamda uning hayoti faravonligining doimiy yaxshilanishini ta'minlash, turli qatlamlarning ta'lim, madaniyat, kasb malakasi daromadlari jihatidan keskin tafovutlarga barham berish, insonlarga munosib turmush sharoitlarini yaratish hisoblanadi. Shuningdek, faol mehnat bozori siyosati sohadagi islohotlarning mazmun- mohiyati, avvalo, ushbu o'zgarishlar markazida turgan inson, uning shaxs va kamolotiga qaratilgan. Shu bois, fuqarolar farovonligini oshirish, ularning hayot tarzini yaxshilash, prezidentimiz ilgari surgan "Islohot islohot uchun emas, avvalo, inson va uning manfaatlarini ta'minlash uchun" degan tamoyilni hayotga izchil tadbiq etish maqsadiga muvofiq bo'ladi.